



**RAQAMLI AVLODDA AXLOQIY TARBIYANI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Aminova G.X

M.Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya:

Mazkur tezisda raqamli avlod sharoitida axloqiy tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari, zamonaviy muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitning yoshlar ongiga ta'siri, ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda pedagogik yondashuvlar ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli avlod, axloqiy tarbiya, ijtimoiy tarmoqlar, pedagogika, virtual muhit, qadriyatlar, tarbiya texnologiyalari.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodning shakllanishida internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar muhim o'rin tutmoqda. Shu sababli "raqamli avlod" tushunchasi ilmiy muomalaga kirib kelib, ularning ijtimoiy-psixologik va axloqiy xususiyatlarini o'rganish dolzarb masalaga aylandi.

Raqamli avlod vakillari axborotni tez qabul qilish, ko'p vazifalilik, virtual muloqotga moyillik kabi jihatlari bilan ajralib turadi. Biroq bu jarayon ayrim salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kiberbulling, axborot manipulyatsiyasi, ijtimoiy izolyatsiya va axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi kabi muammolar shular jumlasidandir.

Mazkur sharoitda axloqiy tarbiya tizimini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildoqda. An'anaviy tarbiya usullari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa,



interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim va media savodxonlikni rivojlantirish bu borada samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Raqamli muhitda axloqiy tarbiyani shakllantirishda o'qituvchining roli alohida ahamiyatga ega. U nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, motivator va nazoratchi sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri axborotni tanlash, uni tahlil qilish va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur.

Shuningdek, ota-onalarning ham bu jarayondagi ishtiroki muhim. Oilada sog'lom ma'naviy muhitni yaratish, farzandlarning internetdan foydalanishini nazorat qilish va ularni to'g'ri yo'naltirish axloqiy tarbiyaning muhim omillaridan hisoblanadi.

Ta'lim tizimida raqamli savodxonlik va axloqiy tarbiya uyg'unligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada maxsus o'quv dasturlari, treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish orqali yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish zarur. Masalan, ma'naviy-ma'rifiy kontentlar, tarbiyaviy videolar va onlayn platformalar orqali yoshlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Raqamli avlodni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda yondashish muhim ahamiyatga ega. Bu esa yoshlarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Raqamli avlod sharoitida axloqiy tarbiyani shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u pedagogik, ijtimoiy va psixologik omillar uyg'unligida amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan tarbiya tizimi yosh avlodning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi. Raqamli muhitning kengayib borishi yoshlar ongiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, algoritmlar asosida ishlovchi ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchining qiziqishlari, xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli yoshlarni raqamli makonda mustaqil fikrlashga, axborotni tanqidiy baholashga va manipulyativ ta'sirlardan himoyalashga o'rgatish dolzarb vazifalardan biridir.



Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida raqamli etikani shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Raqamli etika deganda internet muhitida o‘zini tutish qoidalari, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborotdan mas’uliyat bilan foydalanish tushuniladi. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish orqali yoshlar virtual makonda ham ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan shaxs sifatida rivojlanadi. Shuningdek, raqamli xavfsizlik masalalari ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Yoshlar ko‘pincha internetdagi xavf-xatarlarni to‘liq anglab yetmaydi. Shuning uchun ta’lim jarayonida kiberxavfsizlik asoslari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish usullari va internetdan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur. Bu esa yoshlarning o‘zini va atrofdagilarni turli tahdidlardan himoya qilishiga yordam beradi.

Raqamli avlodni tarbiyalashda individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va psixoemotsional holatini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish yuqori samara beradi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodlardan keng foydalanish lozim. Munozara, debat, keys-stadi (case study) va tahliliy topshiriqlar yoshlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning axborotni chuqur anglash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Raqamli muhitda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish xam muhim ahamiyatga ega. Turli multimedia vositalari, grafik dasturlar va онлайн platformalar orqali yoshlar o‘z ijodiy g‘oyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning innovatsion fikrlashini rivojlantiradi va kelajakda raqobatbardosh kadrlar bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish ham muhim omildir. Ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlar tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yordam



beradi. Shu bilan birga, maktab va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ham dolzarb vazifadir. Turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati va jamoat ishlariga jalb etish orqali yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkin. Bu esa ularning jamiyat oldidagi ma’suliyatini oshiradi.

Raqamli pedagogika sharoitida baholash tizimini ham takomillashtirish talab etiladi. An’anaviy baholash usullari bilan bir qatorda, onlayn testlar, portfolio va loyiha ishlari orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash samarali hisoblanadi. Bu esa ta’lim jarayonining shaffofligi va adolatliligini ta’minlaydi.

Yoshlarni raqamli muhitda to‘g‘ri yo‘naltirishda davlat siyosatining ahamiyati ham kattadir. Ta’lim sohasidagi islohotlar, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli avlodni tarbiyalashda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va milliy qadriyatlar uyg‘unligi asosiy o‘rin tutadi. Bu esa yoshlarni har tomonlama rivojlangan, ma’naviy barkamol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Tojiboyev, A. Pedagogik texnologiyalar va mahorat. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.
2. Egamberdiyeva, N. Ijtimoiy pedagogika. — Toshkent: “Fan”, 2018.
3. Xodjayev, B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: “Sano-standart”, 2017.